Mamlakatimizda yirik davlat korxonalarini aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish bo'yicha bosqichma-bosqich amalga oshirilgan institutsional islohotlar natijasida iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida turli mulk shakllariga asoslangan aksiyadorlik jamiyatlari, ma'suliyati cheklangan jamiyatlar hamda xususiy korxonalar vujudga keldi. O'tgan 30 yildan ortiq davr ichida, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish, aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish hamda korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida qator qonunlar qabul qilindi hamda korporativ boshqaruv tizimini samarali ishlashining huquqiy asoslari shakllantirildi.

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari milliy iqtisodiyotning istiqbolini belgilashda katta ahamiyatga ega bo'lib, ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish borasida muhim ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni bajarmoqda.

Ammo, ta'kidlash joizki, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimining sust faoliyati korxonalarining investitsion jozibadorligini ta'minlashga, innovatsion muhitni yaxshilanishiga, korporativ boshqaruvni



samarali tashkil etishga, korxonalarga ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etishni kengaytirishga, istiqbolli korporativ strategiyani amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Shu bilan birga, aksiyadorlik jamiyatlaridagi korporativ boshqaruv tizimini samarali ishlamayotganligi o'z navbatida milliy iqtisodiyotdagi ustuvor vazifalarni hal etishni kechiktirilishiga sabab bo'lmoqda.

Shu nuqtayi nazardan so'nggi 7 yilda respublikamizdagi davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va ularda korporativ boshqaruvning zamonaviy uslublari joriy etishga qaratilgan bir qator dasturiy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu hujjatlar jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-apreldagi "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi PF-101-son¹ va 2020-yil 27-oktyabrdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiy lashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6096-son² Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi "2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 166-son³ qarorini kiritish mumkin. Mazkur hujjatlarga asosan, davlat ishtirokidagi korxonalarni qisqartirish va ularda kuzatuv kengashini tashkil etish, kuzatuv kengashi qoshida audit va boshqa qo'mitalarni tuzish, hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritish va korporativ boshqaruvni joriy etishga qaratilgan boshqa bir qator talablar belgilangan. Mazkur talablarni bajarilishi birinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarini investitsion jozibadorligini oshirsa, ikkinchidan, mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlanishiga zamin yaratadi, uchinchidan esa jamiyatning aksiyalarini sotilishi hamda investorlarni jalb etilishi innovatsion muhitni yaxshilanishiga turtki beradi.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlari ulkan salohiyatga ega bo'lgani holda, mavjud imkoniyatlardan to'la va samarali foydalanish masalalari hamon muammoligicha qolmoqda. Mamlakatimizda korporativ boshqaruvni samarali faoliyat ko'rsatishi, xalqaro bozorlarda raqobatbardosh bo'lishi o'z-o'zidan boshqaruvning sifati, uning amaliy mexanizmlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etilishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Shunday ekan, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, xususiy mulkchilik masalalarini yanada shakllantirish mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim qismi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish, ularning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini baholash va samarali ichki nazorat tizimini shakllantirish, shuningdek, ichki korporativ me'yoriy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish orqali innovatsion muhitni yaxshilash hal etilishi kutilayotgan dolzarb muammolardan hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishlari jarayonida kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, kuzatuv va statistik ma'lumotlar tahlil usullaridan foydalaniladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv asoslarini ilmiy jihatdan tadqiq etish bilan bog'liq muammolarning nazariy va amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlardan I.Ansoff⁴, V.Antonov⁵, V.Bagov⁶, A.Bandurin⁷, N.Berzon⁸, O.Vixerskiy⁹, V.Mamay¹⁰, A.Rodigin¹¹, R.Entov, L.Koshkin¹², M.B.Kruk, S.Kukura, D.Mixaylov¹³, G.Aleksandr, Dj. Beyli, V.Zolotogorov, A.Mertens¹⁴, L.Pavlova, F.Tumusov, U.Sharp va boshqa bir qator olimlarning ilmiy ishlarida o'rganilgan¹⁵.

1 <https://lex.uz/docs/5947775>

2 <https://lex.uz/docs/5068824>

3 <https://lex.uz/docs/5348948>

4 Ансофф И.Х. Новая корпоративная стратегия / Пер. с англ. – СПб: ПитерКом, 1999. – 416 с.

5 Антонов В.Г. и др. Корпоративное управление: Учеб. пособие. – М.: ИНФРА-М, 2010. – 288 с.

6 Багов В.П. Корпоративный менеджмент. – М.: Изд-во РЭА, 1999. – 246 с.

7 Бандурин А.В. Деятельность корпорации: монография. – М., 1999. – 600 с

8 Берзон Н.И. и др. Акционерное общество: капитал, правовая база, управление. – М.: Финстатинформ, 1995. – 156 с

9 Вихерский О.С. Стратегическое управление. – М.: Гардарика, 1998. – 296 с.

10 Мамай В. Акционерные общества. Защита интересов акционера. – М.: Контур, 1998. – 80 с.

11 Родыгин А., Энтов Р. Корпоративное управление и защита прав собственности: эмпирический анализ и актуальные направления реформ. – М.: Институт экономики переходного периода, 2001. – 175 с.

12 Кошкин Л.И. и др. Менеджмент на промышленном предприятии. – М.: Наука, 2000. – 204 с.

13 Михайлов Д.М. Эффективное корпоративное управление: Учеб. пособие. – М.: КНОРУС, 2010. – 448 с.

14 Мертенс А.В. Инвестиции: курс лекций по современной финансовой теории. – Киев: Киевское инвестиционное агентство, 1997. – С. 41.

15 Шарп У., Тумусов Ф.С. Инвестиционный потенциал региона: теория, проблемы, практика. – М.: Экономика, 1999. – 267 с.



Mahalliy iqtisodchi olimlaridan B.Xodiyev, B.Berkinov, I.Butikov, N.Jumayev, Sh. Zaynutdinov, D.Suyunov, M.Xamidullin, A.Xoshimov, R.Karlibayeva, N. Rasulov, Z. Ashurov, R.Yaushev, N.Tursunov, M.Amonbo-yevlarning asarlarida aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv, investitsiyalar va innovatsiyalarni yanada rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish muammolarini ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

Xususan, Sh. Zaynutdinov "Korporativ boshqaruv – manfaatdor shaxslarning daromad olish maqsadida birgalikdagi harakatlaridir"¹⁶ – deb ta'rif bergan. D. Suyunov esa "Korporativ boshqaruv – bu mulk shaklidan qat'iy nazar amaldagi huquqiy me'yorlarga asoslanib, boshqaruvning ma'lum bir tamoyillari asosida korxona maqsadiga erishish uchun amalga oshiriluvchi faoliyat majmuidir"¹⁷ – deb munosabat bildirgan. M.Xamidullin "Korporativ boshqaruv – bu aksiyadorlik jamiyatlari mulkdorlarining aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirishga, undan foyda olish maqsadida yanada samarali foydalanishga hamda olingan daromadlarni korporativ munosabatlarning barcha ishtirokchilari o'rtasida adolatli taqsimlashga qaratilgan strategik muhim qarorlarni belgilash, ta'riflash va qabul qilishga doimiy va real ta'sirini ta'minlashdagi ongli, bevosita ishtirokidir"¹⁸ – deb fikr bildirgan. B. Berkinov esa "Korporativ boshqaruv tizimi – bu murakkab, tez o'zgaruvchan mexanizm bo'lib, u bir-biriga bog'liq ko'plab tashkil etuvchilar, jumladan, qonunchilik, qonunosti hujjatlari hamda aksiyadorlik jamiyatlarini mulkdorlar, boshqaruvchilar va kreditorlar tomonidan nazorat qilishning ichki mexanizmi hisoblanuvchi ichki me'yoriy hujjatlar majmuini o'z ichiga oladi"¹⁹ – degan fikrni ilgari surgan.

Umuman olganda respublikamizda iqtisodiyotni rivojlanishining yangi bosqichiga o'tish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashda aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish, investitsiya faoliyatini kuchaytirish hamda uning faoliyat samaradorligini oshirish borasida korporativ boshqaruvni innovatsion muhitga bog'liqligi mamlakatimizda ilmiy-uslubiy hamda amaliy jihatdan yetarli jihatda tadqiq etilmagan. Shu bois mazkur maqolada korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish negizida innovatsion muhitni shakllantirish va yanada yaxshilash masalalarining nazariy jihatlariga e'tibor qaratilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin iqtisodiyotni qurishga qaratilgan bo'lib, ularning asosiy natijalaridan biri tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan turli mulkchilikka asoslangan aksiyadorlik va boshqa shakllardagi korxonalarni qo'llab-quvvatlash hisoblanadi²⁰. Ularning samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan korporativ munosabatlar tizimini rivojlantirishga bevosita bog'liqligi hozirda aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv asoslarini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Chunki jahon kapital bozori imkoniyatlaridan faqat investorlarning mutloq ishonchini qozongan kompaniyalargina foydalanishi mumkin bo'lib, unga erishishning yagona yo'li – bu, korporativ boshqaruvning zamonaviy mexanizmini amaliyotga joriy qilishdir. Aksiyadorlik jamiyatlari kapital jalb qilishining yana bir muhim omili – qimmatlar qog'ozlar bozorining investorlar uchun qulay shakllanganligidir. Bu ikki omil boshqa omillar bilan birgalikda mamlakatda alohida investitsiya jozibadorligini oshiradi. Qayerda investitsiya uchun sharoit yaratilsa, o'sha joyda innovatsion muhit yaxshilanadi. Shu sababli har qanday davlat iqtisodiyotining jahon tovar va kapital bozorida uyq'unlashuvi hamda raqobatbardoshligining oshib borishida ushbu omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida samarali faoliyat yuritishning korporativ boshqaruv usuli aksiyadorlik jamiyatlariga investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, barqaror industrial va iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda innovatsion loyihalarni amalga oshirish kabi muammolar yechimini taminlashi mumkin. Bu muammolarni samarali yechimi kompaniyalarning moliya bozorida raqobatbardoshligi va xavfsizligi, barqarorligi hamda investorlar uchun jozibadorligi va mo'tadil risk darajasini ta'minlash bilan uzviy bog'liq. Bu esa, bizga korporativ boshqaruv tushunchasini chuqur ilmiy- uslubiy jihatdan tadqiq etish va uning mazmun-mohiyatini milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda kengroq yoritish hamda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini samarali tashkil etish va takomillashtirishni zaruriyat qilib qo'yadi.

Xorijiy olimlarning tadqiqotlariga ko'ra sanoatning turli sohalarida innovatsion muhitni yaxshilashda investitsiyalar bilan birga innovatsion muhitni rivojlantirishga ko'maklashuvchi omillar ham bo'lishi talab etiladi (1-jadval).

16 Zaynutdinov Sh.N., Raximova D.N. Korporativ boshqaruv asoslari. – T.: Akademiya, 2007. – 48 b.

17 Suyunov D. Korporativ boshqaruv mexanizmi: muammo va yechimlar. Monografiya. – T.: Akademiya, 2007. – 319 b.

18 Хамидулин М.Б. Финансовые механизмы корпоративного управления. Монография. – Т.: Молия, 2008. –204 с.

19 Беркинов Б. Корпоративные структуры (Основы создания и управления). – Т.: Изд-во Нац.б-ки Узбекистана, 2005. – 132 с.

20 Riskiyev T.T., G'ulomov S.S., Shoha'zamiy Sh.Sh. va boshq. Istiqloq, demokratiya va fuqarolik jamiyati. – T.: Sharq, 2003. – 160 b.

1-jadval: Innovatsion muhitni rivojlantirishga ko'maklashuvchi omillar²¹

Omilar guruhi	Omilar
Iqtisodiy va moliyaviy	Iqtisodiy va moliyaviy omillar korxonaning innovatsion muhitini shakllanishini, moddiy-texnika vositalarini yangilanishini, ilg'or texnologiyalardan foydalanishni hamda uzoqqa mo'ljallangan biznes strategiyalarni amaliyotga joriy etilishini ta'minlaydi. Bularga transformatsiya, xususiylashtirish, emissiya, fond bozori kiradi.
Boshqaruv	Korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish, korporativ boshqaruv ishtirokchilarini rag'batlantirish, korporativ boshqaruv mexanizmlarini samarali ishlashini ta'minlash, menejment qoidalaridan samarali foydalanish
Texnologik	Kam xarajatli texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, zamonaviy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish, ishlab chiqarish faoliyatini raqamlashtirish
Siyosiy	Globalashuv tamoyillarini e'tiborga olish, siyosiy barqarorlikni ta'minlash, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda iqtisodiy diplomatiya tamoyillariga amal qilish
Huquqiy	Xususiy mulkni davlat tomonidan kafolatlash, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini qisqartirish, monopol korxonalar faoliyatini tartibga solish, korrupsiyaga qarshi kurashish, xufyona iqtisodiyot ko'lamini qisqartirish
Ijtimoiy qadriyatlar	Korporativ boshqaruv kodeksini qabul qilish va uning talablarini bajarish, xodimlarni ma'naviy rag'batlantirish, xodimning o'z-o'zini namoyon etishiga sharoit yaratish, ijodiy mehnat erkinligini ta'minlash, mehnat jamoasida ijtimoiy muhitni yaxshilash

Innovatsion muhitni rivojlantirishga ko'maklashuvchi omillarga iqtisodiy, moliyaviy, boshqaruv, texnologik, siyosiy, huquqiy hamda ijtimoiy qadriyatlar kiradi. Xususan, iqtisodiy va moliyaviy omillar innovatsion muhitni shakllanishida muhim omil bo'lib, ularga ustuvorlik berish korxonaning moddiy-texnika vositalarini yangilanishiga, ilg'or texnologiyalardan foydalanishni hamda uzoqqa mo'ljallangan biznes strategiyalarni amaliyotga joriy etilishini ta'minlaydi. Bularga transformatsiya, xususiylashtirish, emissiya, fond bozori kiradi. Yana bir muhim omil bu boshqaruv tamoyillariga xos bo'lib, mazkur omilni rivojlanishi o'z navbatida korporativ boshqaruv tamoyillarini amaliyotga joriy etish, korporativ boshqaruv ishtirokchilarini rag'batlantirish, korporativ boshqaruv mexanizmlarini samarali ishlashini ta'minlash hamda menejment qoidalaridan samarali foydalanishga olib keladi.

Innovatsion muhitni yanada yaxshilanishida yana bir muhim omil bu korxonaning texnologik holati hisoblanadi. Chunki, kam xarajatli texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, zamonaviy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish, ishlab chiqarish faoliyatini raqamlashtirish, ishlab chiqarishni transformatsiya qilish bevosita raqobatbardosh, sifatli hamda tannarxi arzon mahsulotlarni ishlab chiqishga imkon yaratadi. Shuning uchun keyingi vaqtlarda iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarini diversifikatsiya qilishda transformatsiya jarayonlarini yanada faollashtirishga davlat tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash o'z navbatida sanoatda transformatsiya jarayonlarini yanada faollashtirishni taqozo etmoqda. Umuman olganda yuqori fan sig'imli mahsulotlar ishlab chiqarish, ko'p qirrali sifatli xizmatlar ko'rsatish sohalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan sanoatni transformatsiyalash kam miqdordagi ishchi kuchlari va tejankor iqtisodiy resurslar bilan vaqt omilidan unumli foydalangan holda yuqori samaradorlikka erishishning yangicha ijtimoiy-iqtisodiy hodisaning bir ko'rinishi hisoblanadi.

Dunyo amaliyotida soha va tarmoqlarda innovatsion muhit holatini mazkur mamlakatdagi innovatsion rivojlanish darajasiga qarab baholanadi. Bu borada dunyoning eng yaxshi biznes maktablari qatoriga kiradigan Fransiyaning "Inssad" xalqaro biznes maktabi Jahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikda tayyorlagan "Innovatsiyalarning global indeksi" mavzuidagi ma'ruzasida O'zbekiston mazkur indeksda 2015-yilda 141 ta davlat orasidan 122-o'rinni egallagan bo'lsa, 2022-yilda 131 ta davlat orasida 40 pog'onaga yuqorilab, 82-o'rinni egalladi hamda Markaziy Osiyo yetakchisiga aylandi va Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari orasida Hindiston va Erondan keyin 3-o'rinni egalladi. Biroq bu holat obyektiv olib qaralganda yaxshi holat emas. Bu borada jiddiy amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar mavjud.

²¹ Xorijiy manbalar asosida muallif ishlanmasi.



So'nggi vaqtlarda respublikamizda innovatsion ilmiy-texnika loyihalarining qo'llanilishi natijasida bir qancha ustuvor sohalarda ijobiy ishlar amalga oshirila boshlandi. Xususan, "O'zkimyosanoat" AJ da mahalliy xom ashyodan samarali defoliant va mineral o'g'itlar, "O'zfarmosanoat" AJ da innovatsion texnologiyalar asosida farmatsevtik mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, Buxoro neftni qayta ishlash zavodida jahon standartlariga javob beradigan "Boing" va "A-310" tipdagi avialaynerlarda foydalaniladigan "Super Jet" aviat-siya yonilg'isini ishlab chiqarish texnologiyasi joriy etildi. Bunday misollarni "O'zbekneftgaz" AJ, "O'ztransgaz" AK, Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlari, "O'zmetkombinat" AJ, shuningdek, ko'plab fermer xo'jaliklari va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatidan ham keltirish mumkin.

Demak, mamlakatimizdagi rivojlanish ko'rsatkichlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, erishilayotgan yutuq va muvaffaqiyatlarning asosida innovatsiya jarayonlari alohida o'rin egallaydi. Jumladan, iqtisodiyot tarmoqlaridagi sanoat korxonalarini ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirishda innovatsiya faoliyatining taraqqiyotisiz amalga oshirib bo'lmaganligi sababli bugungi kunda innovatsiya jarayonlarining amalga oshirishni jadallashtirish talab etiladi. Shuning uchun iqtisodiyot tarmog'idagi ustuvor sohalarda ham innovatsiya va innovatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonlarining nazariy va metodologik asoslarini tadqiq etish hozirgi davrning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish negizida innovatsion muhitni shakllantirishga oid nazariy ma'lumotlarni o'rganish quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirishga asos bo'ldi:

1. Aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyadorlar o'z mulklarini saqlanishi va menejerlar tomonidan samarali boshqarilishini ta'minlashda o'zaro ta'sir vositalarini to'g'ri tashkil etilishi va yo'naltirilishi maqsadga muvofiq. Bu esa menejerlarga to'lanadigan asosiy ish haqidan tashqari, korxona foydasidan bonuslar (mukofotlar) ajratish hozirgi kunda o'zining samarasini ko'rsatmayapti. Bu holat ham korxonalarning innovatsion muhitini shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.
2. So'nggi yillarda O'zbekiston kimyo va yengil sanoat tizimida ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sishi kuzatilsada, mehnat unumdorligi, tejamkor texnologiyalardan foydalanish darajasi nisbatan pastligicha qolmoqda. Bu esa, sohadagi aksiyadorlik jamiyatlarining rivojlantirish strategiyalarini tanlashda korporativ boshqaruv organlari rolini oshirish, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini baholash usullari, korporativ boshqaruvning ichki korporativ me'yoriy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyatini orttirmoqda.
3. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kam resurs talab qiladigan innovatsion ishlab chiqarishni rivojlantirish, investitsion dasturlarni amalga oshirishda raqobatdagi ustunliklardan foydalanish, biznes muhiti va investitsion qulaylikni yanada yaxshilash, istiqbolli tashqi bozorlarni aniqlash, logistika masalalarini hal qilish kabilar sohalar rivojlanishning eng asosiy strategik yo'nalishlari hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan xulosalardan kelib chiqib, sanoatning ustuvor sohalarida transformatsiyalash jarayonlarini yanada faollashtirish, korporativ boshqaruv mexanizmlarini yanada takomillashtirish o'z navbatida aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsion rivojlanishni ta'minlash bilan birga quyidagi vazifalarni bajarishni belgilash maqsadga muvofiqdir:

- aksiyadorlik jamiyatlarining innovatsion salohiyatini oshirish bilan birga korxonalaridagi mavjud samarali innovatsion texnologiyalardan foydalanish va samarali yangi texnologiyalar, nou-xau va intellektual mulklarni sotib olishni yo'lga qo'yish;
- sanoat korxonalarida ilmiy-tadqiqot va eksperimental bazani rivojlantirish orqali ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini faollashtirish;
- innovatsiya jarayonidagi tajriba ishlarini olib borishda unga mos keluvchi tashkilotlarga buyurtmalar berish va ularni moliyalashtirish masalalarini hal etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish;
- yangiliklarni ishlab chiqishni va joriy etishni tezlashtirish uchun korporativ boshqaruvning asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan aksiya, obligatsiya va chet el kapitallarini jalb qilishni yo'lga qo'yish.

Yuqoridagi sanab o'tilgan yo'nalishlardan iqtisodiyot tarmog'idagi barcha aksiyadorlik jamiyatlarida foydalanishda innovatsion rivojlanishga ega bo'lishi ularning raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy yuksalishiga erishishi bilan birga innovatsion muhitni yaxshilash uchun qulay sharoitlar yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://lex.uz/docs/5947775>
2. <https://lex.uz/docs/5068824>
3. <https://lex.uz/docs/5348948>
4. Ансофф И.Х. Новая корпоративная стратегия / Пер. с англ. – СПб: ПитерКом, 1999. – 416 с.
5. Антонов В.Г. и др. Корпоративное управление: Учеб. пособие. – М.: ИНФРА-М, 2010. – 288 с.
6. Багов В.П. Корпоративный менеджмент. – М.: Изд-во РЭА, 1999. – 246 с.
7. Бандурин А.В. Деятельность корпорации: монография. – М., 1999. – 600 с.
8. Берзон Н.И. и др. Акционерное общество: капитал, правовая база, управление. – М.: Финстатинформ, 1995. – 156 с.
9. Вихерский О.С. Стратегическое управление. – М.: Гардарики, 1998. – 296 с.
10. Мамай В. Акционерные общества. Защита интересов акционера. – М.: Контур, 1998. – 80 с.
11. Родыгин А., Энтов Р. Корпоративное управление и защита прав собственности: эмпирический анализ и актуальные направления реформ. – М.: Институт экономики переходного периода, 2001. – 175 с.
12. Кошкин Л.И. и др. Менеджмент на промышленном предприятии. – М.: Наука, 2000. – 204 с.
13. Михайлов Д.М. Эффективное корпоративное управление: Учеб. пособие. – М.: КНОРУС, 2010. – 448 с.
14. Мертенс А.В. Инвестиции: курс лекций по современной финансовой теории. – Киев: Киевское инвестиционное агентство, 1997. – С. 41.
15. Шарп У., Тумусов Ф.С. Инвестиционный потенциал региона: теория, проблемы, практика. – М.: Экономика, 1999. – 267 с.
16. Zaynutdinov Sh.N., Raximova D.N. Korporativ boshqaruv asoslari. – T.: Akademiya, 2007. – 48 b.
17. Suyunov D. Korporativ boshqaruv mexanizmi: muammo va yechimlar. Monografiya. – T.: Akademiya, 2007. – 319 b.
18. Хамидулин М.Б. Финансовые механизмы корпоративного управления. Монография. – Т.: Молия, 2008. – 204 с.
19. Беркинов Б. Корпоративные структуры (Основы создания и управления). – Т.: Изд-во Нац.б-ки Узбекистана, 2005. – 132 с.
20. Riskiyev T.T., G'ulomov S.S., Shoha'zamiy Sh.Sh. va boshq. Istiqlol, demokratiya va fuqarolik jamiyati. – T.: Sharq, 2003. – 160 b.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.